

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI

MURADOV MURODJON TOXIRJONOVICH

O‘ZBEKISTONDA O‘SUVCHI *PHLOMOIDES KAUFMANNIANA* VA
SCUTELLARIA OXYSTEGIA O‘SIMLIK TURLARINING KIMYOVIY
TARKIBINI O‘RGANISH

02.00.10 – Bioorganik kimyo

KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Muradov Murodjon Toxirjonovich

О‘zbekistonda o‘svuchi *Phlomoïdes kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o‘simlik turlarining kimyoviy tarkibini o‘rganish 3

Мурадов Муроджон Тохиржонович

Изучение химического состава видов растений *Phlomoïdes kaufmanniana* и *Scutellaria oxystegia*, произрастающих в Узбекистане 21

Muradov Murodjon Toxirjonovich

Study of the chemical composition of *Phlomoïdes kaufmanniana* and *Scutellaria oxystegia* plant species growing in Uzbekistan..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
O‘SIMLIK MODDALARI KIMYOSI INSTITUTI

MURADOV MURODJON TOXIRJONOVICH

**O‘ZBEKISTONDA O‘SUVCHI *PHLOMOIDES KAUFMANNIANA* VA
SCUTELLARIA OXYSTEGIA O‘SIMLIK TURLARINING KIMYOVIY
TARKIBINI O‘RGANISH**

02.00.10 – Bioorganik kimyo

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona- 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/K675 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Namangan davlat universiteti va O‘zRFA O‘simlik moddalari kimyosi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta‘lim tarmog‘ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimov Abdurashid Musaxonovich
kimyo fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Gafurov Mahmudjon Bakiyevich
kimyo fanlari doktori, professor

Nishonov Mirkozimjon
texnika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.K.05.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi, 19. Tel: (99873) 244 44 02, faks (99873) 244-44-93).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi, 19. Tel.:244 44 02, faks (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

V.U. Xo‘jayev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

Sh.Sh. Turg‘unboyev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.V. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo aholisi foydalanayotgan dorivor resurslarning katta qismi shifobaxsh o‘simliklar xomashyosi asosida tayyorlanmoqda. Shu sababli oxirgi yillarda dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Biologik faol birikmalar saqlagan o‘simliklar asosida tayyorlangan dori vositalari inson organizmiga keng doirada ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday tabiiy birikmalarning samarali kompleks ta‘siri bilan bir qatorda ularning nojo‘ya ta‘sirlarining kamligi jihatidan sun‘iy hamda sintetik dori vositalariga nisbatan ustunligi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda dorivor o‘simliklarning tarkibini o‘rganish, biologik faol moddalarini ajratib olish, va ajratib olingan moddalarning tuzilishlari, biologik faolliklarini o‘rganish, hamda alohida olingan birikmalardan samarali dori vositalari yaratish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, *Lamiaceae* oilasiga mansub *Phlomis* va *Scutellaria* turkumi turlariga kiruvchi o‘simliklarning farmakologik faol moddalarini ajratish, o‘simliklarni kimyoviy tarkibini tadqiq etish, ularning biologik faol birikmalarini aniqlash va ajratib olingan birikmalar asosida, yangi ta‘sirdagi dorivor vositalar yaratishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda dorivor o‘simliklar xomashyosi asosida farmatsevtika sanoatini jadallik bilan rivojlantirish, aholini tabiiy arzon va sifatli dori vositalari bilan ta‘minlash bo‘yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 22-maqсадida “Farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 3 barobar ko‘paytirish va mahalliy bozorni ta‘minlash darajasini 80 foizga yetkazish”¹ bo‘yicha amalga oshirilishi muhim bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan. Bu borada *Phlomis kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o‘simliklarini tadqiq etish va biologik faol birikmalarini ajratib olish usullarini takomillashtirish, o‘simliklar tarkibidagi tabiiy birikmalar - flavonoid, iridoid va terpenoidlar asosida yallig‘lanishga qarshi, antimikrob, tinchlantiruvchi va qon bosimini me‘yorlashtiruvchi preparatlar yaratilishi sohasidagi ishlarni takomillashtirish muhim ilmiy amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-noyabrdagi PF-5229-son «Farmatsevtika tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2018-yil 14-fevraldagi PQ-3532-son «Farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2019-yil 10-apreldagi PF-5707-son «2019-2021-yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini yanada jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-son «Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.

qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi kunga *Lamiaceae* oilasining *Phlomoides* turkumiga mansub o'simliklarning dunyo bo'ylab 170 ga yaqin turi aniqlangan bo'lib, O'zbekistonda bu o'simlikning 43 turi keng tarqalgan. *Phlomoides* turkum o'simliklari kimyoviy tarkibini tadqiq etish bo'yicha yetakchi mutaxassis olimlar Yuan Zhang, Hiao-Hui Li, Hang Li (Xitoy), Samin Mohammad, Abbas Delazar (Eron), Tayfun Erso'z, Ihsan Calish (Turkiya) D.N. Olinnikov va N.K. Cirikova (Rossiya), N. Ramazanov, D. Usmanov va boshqalar (O'zbekiston) o'z hissalarini qo'shganlar.

Scutellaria turkumiga mansub o'simliklarning tarkibini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida flavon, flavanon, flavanonol, xalkon, flavonol, izoflavon, flavolignan, biflavonoid tuzilishli birikmalar ko'p tarqalganligi aniqlangan. Shuning uchun *Scutellaria* turkumini flavanoidlarga boy o'simlik manbasi sifatida e'tirof etish mumkin. *Scutellaria* turkumi o'simliklari flavonoidlarini tadqiq etishda Shibata S., Kikuchi Y., Miyaichi Y., Tomimori T. (Yaponiya), Miao J., Zhou Z.H., Yang C.R., Zhang Y.Y. (Xitoy), Litvinenko V.I. (Ukraina), Olennikov D.N., Chemesova I.I. (Rossiya), Malikov V.M., Botirov E.X., Abdullayev Sh.V., Yuldashev M.P. va boshqa (O'zbekiston) olimlari o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston hududida o'suvchi *Phlomoides* va *Scutellaria* turkumiga mansub turlarning kimyoviy tarkibi yetarlicha o'rganilmagan va hozirgi kunga qadar ular asosida dori vositalari ishlab chiqarilmagan.

Ko'kamaronning ko'plab turlari uchun antioksidant sifatida asosiy ta'sir etuvchi birikmalar o'simlikda sintezlanuvchi va ildizlarida hamda yer ustki qismida to'planuvchi flavonlar – baykalein va vogonin hamda ularga mos ravishdagi glyukuronidlar – baykalin va vogonozidlar hisoblanadi. Baykalin lipidlarning peroksidli oksidlanishini vitamin E ga nisbatan 375 marotaba kuchli bartaraf etadi. Vogonin flavonoidi neyroprotektor va bezovtalikka qarshi ta'sirni namoyon etadi, shu asnoda u GAMK-ergik retseptorlarga faol benzodiazepin markaz kabi samarali ta'sir etadi. Ko'kamaron ildizlari ekstrakti va alohida olingan flavonlarining farmakologik ta'sir doirasi nihoyatda keng bo'lib, hanuzgacha to'liq o'rganilmagan.

Phlomoides va *Scutellaria* turkum o'simlik turlari O'zbekiston hududida keng tarqalganligini hisobga olgan holda ushbu turlardan yangi va samarali biologik faol moddalarni ajratib olish dolzarb hamda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega

vazifalardan biri ekanligi, ushbu mavzuni tadqiqot obyekti sifatida tanlashga asos bo'lib xizmat qildi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Mahalliy o'simliklardan fiziologik faol moddalar ajratish va tadqiq etish" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi *Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o'simliklaridan individual moddalar ajratib olish hamda olingan birikmalar tuzilishini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Phlomoides kaufmanniana va *Scutellaria oxystegia* o'simlik xomashyolarini turli organik erituvchilar yordamida ekstraksiya qilish va fraksiyalarga ajratish;

ushbu fraksiyalarning xromatografik tahlillarga asoslanib, qutbliligi ortib borish tartibida turli erituvchilar sistemasi yordamida ustunli xromatografiya hamda rexromatografiya, kristallash, qayta kristallash, preparativ xromatografiya usullaridan foydalanib sof holdagi birikmalarni ajratib olish;

ajratib olingan individual moddalarning kimyoviy tuzilishini kimyoviy, fizik-kimyoviy, RTT usullari yordamida aniqlash va identifikatsiya qilish;

gidrodistilyatsiya usulida efir moylarini ajratib olish va ularni GX-MS usulida tahlil qilish;

Phlomoides kaufmanniana va *Scutellaria oxystegia* o'simlik xomashyolaridagi makro- va mikroelementlar tarkibini aniqlash;

o'simliklardan ajratib olingan ekstraktlar hamda efir moylarining zamburug' va mikroblarga qarshi biologik faolliklarini tadqiq etish;

Tadqiqotning obyekti sifatida *Lamiaceae* oilasining *Phlomoides* va *Scutellaria* turkumlariga mansub, *Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o'simlik turlari olingan.

Tadqiqotning predmeti *Phlomoides* va *Scutellaria* turkumiga mansub, *Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o'simliklaridan ajratib olingan individual moddalar va kristallarning kimyoviy tuzilishi, kimyoviy va fizik-kimyoviy xossalari hamda biologik faolliklarini o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqot ishini bajarishda ekstraksiya, haydash, kristallash, qayta kristallanish, ustunli va yupqa qatlamli xromatografiya usullaridan, moddalar tuzilishini aniqlashda fizikaviy tadqiqot usullaridan: UB, IQ, ^1H , ^{13}C YaMR spektroskopiyasi, gaz xromatografiyasi-mass-spektrometriyasi (GX-MS), rentgen tuzilish tahlili (RTT) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Phlomoides kaufmanniana va *Scutellaria oxystegia* o'simliklarining kimyoviy tarkibi o'rganilib, ushbu turlardan birinchi marta 11 ta modda sof holda ajratib olinib, kimyoviy tuzilishlari zamonaviy usullar yordamida isbotlangan, jumladan: *Phlomoides kaufmanniana* o'simligidan 5 ta va *Scutellaria oxystegia* o'simligidan 6 ta modda ajratib olingan;

Phlomoides kaufmanniana o‘simligidan ajratib olingan iridoid tabiatli adabiyotlarda ma’lum bo‘lmagan yangi moddaning tuzilishi spektral va RTT usulida isbotlangan;

Phlomoides kaufmanniana va *Scutellaria oxystegia* o‘simliklarining yer ustki qismidan gidrodistillyatsiya usulida olingan efir moylarining kimyoviy tarkibi GX-MS usulida aniqlangan va mos ravishda 47 va 43 ta birikma identifikatsiya qilingan;

Phlomoides kaufmanniana va *Scutellaria oxystegia* o‘simliklarining makro- va mikroelementlari sifat va miqdoriy jihatdan tekshirilib, o‘simliklar tarkibida muhim biologik faol elementlarning miqdori ruxsat etilgan konsentratsiyalarda mavjudligi hamda zaharli elementlarning miqdori kamligi aniqlangan;

O‘simliklardan ajratib olingan efir moylari va ekstraktlarning biologik faolliklarini aniqlash natijasida ularning samarali antimikrob va antibakterial xususiyatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ilk bor *Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o‘simligidan iridoidlar sinfiga mansub, yangi modda – metil (4R, 5S, 6S, 7S, 8R, 9S) - 6,7,8 – trigidrokso-8-metil-1-oksooktagidrotsiklopenta[c]-piran-4-karboksilatni ajratib olish va uning kristallarini olish usuli ishlab chiqildi, tuzilishi ^1H , ^{13}C YaMR-spektrlari va RTT yordamida aniqlangan.

Scutellaria oxystegia o‘simligining 70% etanoli ekstrakti tarkibidan flavonoidlarni ajratib olishning samarali usuli ishlab chiqilgan.

Phlomoides kaufmanniana o‘simligi ekstraktini tarkibidagi xlorofill va ballast moddalardan tozalashning samarali usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy fizik tadqiqot usullari: UB, IQ, ^1H -YaMR, ^{13}C -YaMR spektroskopiya, RTT qo‘llanilib, ajratib olingan birikmalarning kimyoviy tuzilishi tadqiq qilinganligi, hamda olingan natijalar shu sohadagi ilmiy ma’lumotlar bilan taqqoslab tahlil qilinganligi, tadqiqotda olingan natijalarni nufuzli respublika va xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilishi, natijalarning respublikadagi va xalqaro anjumanlarda muhokama qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ilk bor *Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o‘simlik turlaridan iridoid, steroid va flavonoidlar, gidrodistillyatsiya usulida olingan efir moylari hamda o‘simliklar tarkibidagi makro- va mikroelementlari sifat va miqdoriy jihatdan aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, *Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o‘simliklaridan iridoidlar sinfiga mansub, yangi modda latifoninni ajratib olish va uni kristallash usuli ishlab chiqilganligi, o‘simliklarning 70% etanoli ekstrakti tarkibidan flavonoidlarni ajratib olishning samarali usuli topilganligi, 70% ekstrakt tarkibidan xlorofill va ballast moddalardan tozalash usuli ishlab chiqilganligi, birinchi marta tadqiqot uchun olingan o‘simliklarning efir moylari va ekstraktlarning antimikrob va antibakterial faolliklari aniqlanganligi, olingan ushbu natijalar farmatsevtika sanoatida dori

vositalarini ishlab chiqarish texnologiyalarida foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o‘simliklarining kimyoviy tarkibini tadqiq qilish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Phlomoides kaufmanniana o‘simligi yer ustki qismidan olingan terpenoidlar va uglevodorodlar kimyoviy tarkibi va biologik faolliklarini aniqlash asosida olingan natijalardan №TA-FA-F7-008 «Tabiiy terpenoid va fenol birikmalarni o‘rganish hamda ular asosida tibbiyot, veterinariya va qishloq xo‘jaligi uchun dori vositalari yaratish» mavzusidagi ilmiy loyihada o‘simlik tarkibidagi moddalar va ularning miqdori bo‘yicha aniq xulosalar olishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2023 yil 19 sentyabrdagi № 4/1255-1986 – son ma‘lumotnomasi). Natijada keltirilgan tabiiy terpenoid birikmalar bo‘yicha ma‘lumotlar loyiha doirasida zarur aniq tahlil va xulosalar olish imkonini bergan.

Phlomoides kaufmanniana o‘simligidan ajratib olingan metil (4R, 5S, 6S, 7S, 8R, 9S) -6, 7, 8–trigidroksi - 8 – metil – 1 – oksooktagidrotsiklopenta [c] - piran-4-karboksilatning rentgen tuzilishi ma‘lumotlari Kembridj xalqaro tuzilish ma‘lumotlar bazasida (The Cambridge Structural Database <https://www.ccdc.cam.ac.uk/>) ro‘yxatga olingan (CCDC: 2215108 CINRAQ). Natijada, birikmaning tuzilishi, tabiati, rentgen tuzilishi tahlili yordamida olingan molekulalararo o‘zaro ta’sirlar va tahlil ma‘lumotlaridan soha olimlarining foydalanishiga imkon yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK ning falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta mahalliy jurnallarda maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 101 betni tashkil etgan.

Mazkur dissertatsiya ishidagi tajribaviy va laboratoriya tadqiqotlarining asosiy qismi O‘simlik moddalari kimyosi institutining Terpenoidlar va fenol birikmalar kimyosi laboratoriyasida bajarilgan. Dissertant O‘simlik moddalari kimyosi instituti rahbariyatiga, Terpenoidlar va fenol birikmalar kimyosi, Molekulyar genetika, Fizikaviy tadqiqot usullari laboratoriyalari ilmiy xodimlariga va mazkur dissertatsiya ishini bajarishda hamkorlik qilgan barcha hammualliflarga o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyektlari va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo‘yicha xulosalar qilingan hamda chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “*Phlomoides va Scutellaria o‘simlik turkum turlarining kimyoviy tarkibi hamda biologik faolliklari*” deb nomlangan birinchi bobida *Phlomoides kaufmanniana* o‘simligining umumiy tavsifi, biologik faolliklari bo‘yicha adabiyot ma‘lumotlari tahlillari, o‘simlik tarkibidagi iridoidlar, efir moylari hamda makro- va mikroelementlar to‘g‘risidagi umumiy ma‘lumotlar bayon etilgan. *Scutellaria* turkumi o‘simlik turlari va ularni biologik faolliklari, efir moylari, diterpenoid va flavonoidlari bo‘yicha major-minor komponentlar va ularning tuzilish formulalari, nomlanishi, xossalari keng yoritib berilgan. Bob so‘ngida bob bo‘yicha umumiy xulosalar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “*Phlomoides kaufmanniana va Scutellaria oxystegia o‘simliklaridan ajratib olingan individual birikmalar tahlillari hamda biologik faolliklari*” deb nomlangan ikkinchi bobida *Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o‘simliklari to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot, tadqiqotni olib borishning umumiy sxemasi, ajratib olingan individual birikmalarining kimyoviy tuzilishini isbotlash, kimyoviy va fizik-kimyoviy tahlil natijalari, kimyoviy tuzilishini aniqlashda ishlatilgan usullar va olingan natijalar asosida tuzilgan formulalar, yuqoridagi o‘simliklarning ekstrakt, efir moylari va birikmalarining bakteriya va zamburug‘larga qarshi faolliklari, efir moylari tarkibini identifikatsiya qilish natijalari, o‘simliklarning makro- va mikroelementlari tarkibi bo‘yicha tahlillar bayon etilgan.

Phlomoides kaufmanniana va Scutellaria oxystegia o‘simliklari efir moylari tarkibi

O‘zbekiston florasida o‘sovchi *Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o‘simliklari efir moylari tarkibi avval tadqiq qilinmagan. Shuni hisobga olib, biz tomonimizdan O‘zbekistonda o‘sovchi *Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o‘simliklari yer ustki qismidan gidrodistilyatsiya usulida ajratib olingan efir moylarining kimyoviy tarkibini xromato-mass-spektrometriya usuli yordamida o‘rganildi.

Phlomoides kaufmanniana o‘simligini efir moyi tarkibini o‘rganish maqsadida Jizzax viloyatining Forish tumani Hayotsoy qishlog‘i tog‘ etaklaridan o‘simlikni gullagan vaqtda (may 2019 y) terib keltirildi.

Phlomoides kaufmanniana o‘simligi efir moylari tarkibidan 47 ta modda aniqlandi, shulardan 42 tasi identifikatsiya qilindi. Aniqlangan moddalar umumiy efir moylarining 96.1% ini tashkil etdi. *Phlomoides kaufmanniana* efir moylari kislorodli monoterpenlarga (18,58%), aromatik aldegidlarga (23,39%), uglevodorodlarga (17,85%) va spirtlarga (17,44%) boy. Moy tarkibi asosini linalil

formiat (12,25%), fenilatsetaldegid (10,78%), 2-oktildekan-1-ol (7,55%), trikozan (5,68%), 2,6,10-trimetiltridekan (4,30%), 1-butanol (3,92%), furfural (3,86%), sis-linalol oksidi (furan) (3,57%), benzaldegid (3,47%), dokoza (3,01%) va feniletanol (2,92%) birikmalari tashkil etdi.

Amalga oshirilgan laboratoriya tahlillari, olib borilgan tajriba va mavjud adabiyotlar tahliliga ko'ra mazkur tur tarkibidagi kislota tabiatli monoterpen linalil formiat parfyumeriya kompozitsiyalarini tayyorlashda ahamiyatli bo'lsa, α -terpinol keng farmakologik faollikka ega. Sitronellol og'riq qoldiruvchi, zamburug' kasalliklarini davolash xususiyatlariga ega bo'lib, undan parfyumeriya va oziq-ovqat sanoatida foydalanish diqqatga sazovordir.

Scutellaria oxystegia o'simligining efir moylarini tadqiq etish uchun Toshkent viloyati, Angren tumani, Saridala tog'i hududlaridan o'simlik gullagan vaqtida (may-iyun 2021 y) yig'ib olindi.

Scutellaria oxystegia o'simligi efir moyi tarkibidagi 43 ta birikma aniqlandi. Bu umumiy efir moyi miqdorining 91,4% ni tashkil etdi. Efir moyining asosiy tarkibiy qismlari atsetofenon (23,9%), siklogeksanon (10,1%), fitol (4,4%), palmitin kislota (3,6%), benzilidenatseton (2,9%), seten (2,7%), leden oksidi-(II) (2,4%) va feniletil spirti (2,1%). Efir moyi tarkibida oz miqdorda seskviterpen uglevodorodlari (2,5%) va kislorodli monoterpenlar (1,3%) mavjud. Atsetofenon *Scutellaria immaculata* va *Scutellaria schachristanica* o'simliklari efir moylarining ham asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi.

***Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o'simliklari yer ustki qismi birikmalarining kimyoviy tahlili**


O'rganilayotgan o'simliklarning yer ustki qismlari ayni gullash paytida yig'ib olingan. O'simliklar yer ustki qismi salqin joyda quritilib, maydalandi. Moddalarni murakkab aralashmalardan ajratish va bo'lishda fitokimyoda ko'p qo'llaniladigan usullar, ya'ni qutbliligi jihatdan har xil erituvchilar yordamida o'simlik xomashyosini ekstraksiyalash, moddalarni qutbliligi jihatdan bir-biriga yaqin fraksiyalarga (1-sxema) bo'lish, turli adsorbentlar yordamida ustunli, yupqa qatlam xromatografiya (YuQX) usulini qo'llab tozalash hamda sof moddalarga ajratishda rexromatografiya va qayta kristallash usullaridan foydalanildi hamda individual moddalar ajratib olindi (1-jadval). Olib borilgan tadqiqotlarning umumiy tartibi 1-sxemada ifodalangan.

1-jadval

O'rganilgan o'simliklardan ajratib olingan individual moddalar

Tekshirilgan o'simlik	Ajratib olingan moddalar*
<i>Phlomoides kaufmanniana</i>	β -stigmasterin (1), diizooktilftalat (2), daukosterol (3) flamiol (4), latifonin (5)
<i>Scutellaria oxystegia</i>	latifonin (5), β -sitosterol (6), daukosterol (3), sinorazid (7), xrizin (8) va lyuteolin (9)

*Olingan moddalar o‘simliklardan ilk bor ajratilgan



1-sxema *Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o‘simliklarini yer ustki qismidan individual moddalarni ajratib olishning umumiy sxemasi

Phlomoides kaufmanniana o‘simligini xloroformli fraksiyasidan β -stigmasterin (1), diizooktilftalat (2), ajratib olindi.

β -Stigmasterin (1), $C_{29}H_{48}O$. Oq rangli kristal modda. Suyuq.haror. 159 - 161°C. Xloroform va metanolda yaxshi eriydi. IQ (KBr, ν_{max} sm^{-1}): 3450, 2900, 2850, 1630, 1450, 1095, 720. 1H YaMR va ^{13}C YaMR spektr tahlillari 2-jadvalda keltirilgan.

Diizooktilftalat (2), $C_{24}H_{38}O_4$. xona haroratida sarg‘ish rangli quyuyq suyuqlik. Methanol, xloroform va DMSO- d_6 yaxshi eriydi. UB- spektr (EtOH, λ_{max} , HM): 231, 281; YaMR spektr ma’lumotlari benzol halqasidagi 1,2-proton almashingan signallari va 2 ta izooktil guruh signallarini namoyon qildi.

Phlomoides kaufmanniana o‘simligining xloroformli fraksiyasidan daukosterol (3), flamiol (4), latifonin (5) moddalari ajratib olindi.

Daukosterol (3), $C_{35}H_{60}O_6$. Rangsiz ignasimon kristallar. Suyuq.haror. 276–277°C, etilatsetat va piridinda eriydi, **IQ (KBr, ν_{max} cm^{-1})**: 3450-3350, 2920-2850, 1680, 1610, 1450, 1350, 1280, 1150, 1120–1050, 970-955. 1H va ^{13}C YaMR spektr tahlillari 2-jadvalda keltirilgan.

Flamiol (4), $C_{17}H_{26}O_{13}$ oq kristall modda. Suyuq.haror. 350°C dan yuqori. Piridin, DMSO va metanolda eriydi. Spektral (UB, IQ, YaMR) tahlillar asosida tuzilishi aniqlandi. 1H va ^{13}C YaMR spektr tahlillari 3-jadvalda keltirilgan.

Latifonin (5), $C_{11}H_{26}O_{13}$ oq kristall modda. Suyuq.haror. 280-282°C. piridin va metanolda eriydi. Spektral (UB, IQ, YaMR) tahlillar asosida u iridoid sinfiga mansub yangi modda ekanligi aniqlandi va RTT yordamida isbotlandi. 1H va ^{13}C YaMR spektr tahlillari 3-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Phlomoides kaufmannianadan ajratib olingan steroidlarning 1H , ^{13}C YaMR spektral ma'lumotlari

№	№1 modda		№3 modda	
	δ_H	δ_C	δ_H	δ_C
1	1.15 (2H, m*)	37.31	1.73 (1H, m,)	37,33
2	1.44 (2H, m)	31.72	2.16 (1H, m,)	30,12
3	3.36 (1H, m)	71.85	3.97 (1H, m,)	77,94
4	1.98 (2H, m)	42.37	2.75(1H, ddd, J=13.3, 4.2, 2.2,)	39,20
5	---	141.01	---	140,76
6	5.01 (1H, d** J***=8.4)	121.73	5.36 (1H, m)	121,78
7	1.85 (2H, m)	31.72	1.91 (1H, m)	32,03
8	1.44 (1H, m)	31.79	1.39 (1H, m)	31,91
9	1.44 (1H, m)	50.19	0.92 (1H, m)	50,20
10	---	36.17	---	36,78
11	1.44 (2H, m)	21.11	1.45 (1H, m)	21,14
12	1.44 (2H, m)	40.10	1.99(1H, ddd, J = 12.6, 3.8, 3.3,)	39,80
13	---	42.41	---	42,33
14	1.44 (1H, m)	56.12	0.95 (1H, m)	56,68
15	1.53 (2H, m)	23.12	1.57 (1H, m)	24,36
16	1.53 (2H, m)	29.72	1.86 (1H, m)	28,40
17	1.53 (2H, m)	56.12	1.12 (1H, m)	56,10
18	0.55 (3H s)	12.01	0.68 (3H, s)	11,83
19	0.80 (3H, s)	19.42	0.95 (3H, s)	19,28
20	2.27 (1H, m)	41.10	1.40 (1H, m)	36,25
21	1.01 (3H, d, J=6.6)	21.10	1.00(3H, d, J = 6.5)	18,86

22	5.14 (1H,dd, J=13.8, 6.8)	138.0	1.42 (1H, m)	34,06
23	5.27 (1H,dd, J=5.2, 2.9)	128.95	1.27 (2H, m)	26,23
24	2.22 (1H, m)	50.15	1.02 (1H, m)	45,90
25	1.85 (1H, m)	31.72	1.70 (1H, m,)	29,31
26	0.83 (6H, m)	21.30	0.88 (3H, d, J = 6.8)	19,06
27	0.83 (6H, m)	19.06	0.90 (3H, d, J = 6.8)	19,83
28	1.25 (2H, m)	25.38	1.31 (2H, m)	23,24
29	0.85 (3H, d, J=6.4)	12.28	0.91 (3H, t, J = 7.4)	12,01
1`	---	---	5.08 (1H,d,J=7.7,)	102,44
2`	---	---	4.08 (1H, dd, J = 8.2, 7.9,)	75,21
3`	---	---	4.32 (1H, m,)	78,48
4`	---	---	4.32 (1H, m,)	71,56
5`	---	---	4.00 (1H, m,)	78,37
6`	---	---	4.58(1H,dd, J=11.6,2.1)	62,70

d*-dublet, m***-multiplet, J***-spin-spin konstanta


3-jadval

***Phlomoides kaufmannianadan* ajratib olingan iridoidlarning ^1H , ^{13}C YaMR spektral ma'lumotlari**


№	№4 modda		№5 modda	
	δ_{H}	δ_{C}	δ_{H}	δ_{C}
1	5.71 (s)	92.35	---	171.36
2	---	---	---	---
3	7.38 (s)	152,32	4.72 (m)	67.78
4	---	112.38	3,22 (ddd, J=4.5,4.1, 3.6)	42.75
5	---	67.97	3,55 (m)	44.26
6	4.01(dd, J=4.0,3.9)	75.64	4,51 (m)	75.89
7	3.51 (dd, 4.2, 4.1)	78.49	4,15 (d, J=3.7)	80.27
8	---	76.59	---	80.27
9	2.35(s)	55.57	4.07 (d, J=12.1)	51.97
10	1,29 (s)	22.29	1,61 (s)	24.26
11	---	166.56	---	173.40
12	3,71 (s)	50.65	3,57 (s)	52.60
1`	4.43(d, J=7.8)	97.83	---	---
2`	3.02 (m)	72.61	---	---
3`	3.14 (m)	76.98	---	---
4`	3.14 (m)	69.83	---	---
5`	3.20(m)	75.93	---	---
6`	3.54(m)a, 3.36(m)b	60.97	---	---

d*-dublet, m***-multiplet, J***-spin-spin konstanta


Phlomoides kaufmanniana o‘simligidan ajratib olingan moddalarning tuzilishi




β -Stigmasterin (1)




Diizooktilftalat (2)



Daukosterol (3)



Flamiol (4)



Latifonin (5)


Latifoninning rentgen tuzilish tahlili

Yangi iridoid molekulasining rentgen nurlari difraksiyasi bilan aniqlangan fazoviy tuzilishi 1-rasmda ko‘rsatilgan. Flek parametrlari (0,3(3)) molekulaning mutlaq konfiguratsiyasini aniqlashga imkon bermasa ham, shunga o‘xshash molekularning mutlaq konfiguratsiyasiga asoslanadi. Iridoiddagi xiral markazlarning konfiguratsiyasi 4R,5S,6S,7S,8R,9S sifatida belgilandi. Molekulyar strukturada C5 va C9 atomlarida ikkita cis-bo‘g‘inli halqalar mavjud, H5 va H9 atomlari esa β -yo‘naltirilgan (1-rasm). s-lakton halqasi biroz burilgan vanna konformatsiyasini, siklopentan halqasi esa konvert konformatsiyasini qabul qiladi. C6, C7, C8 atomlaridagi gidroksil guruhlar va C4 atomidagi karboksimetil guruhi β -orientatsiyaga ega, C8 atomidagi metil guruhi esa α -orientatsiyaga ega. C9-C1(O1)-O2-C3 lakton guruhi deyarli tekis bo‘lib, O2 atomi uchun o‘rtacha ildiz kvadrat og‘ishi 0,0036 Å va maksimal og‘ish 0,021(5) Å ga teng. C3-O1-C1-O2 fragmentidagi burilish burchagi 178,44° bo‘lib, tekislikdan faqat biroz og‘ishni ko‘rsatadi. Bu konfiguratsiya iridolakton hosilasi va (+)-nepetelakton kislotaga uchun tavsiflangan konfiguratsiyaga mos keladi.

Shuning uchun bu birikma metil (4R,5S,6S,7S,8R,9S)-6,7,8-trigidroksi-8-metil-1-oksooktagidrosiklopenta[c]-piran-4-karboksilat tuzilishga ega.

Ushbu kristalda O-H...O tipidagi molekulararo H-bog‘lar bo‘lib, ularda barcha gidroksil guruhlar ishtirok etadi. Har bir σ -lakton molekulasida a va b o‘qlari tekisligi bo‘ylab ikki o‘lchovli qatlam hosil qiluvchi O4-H4A...O6 va C4-H4...O1 H-bog‘lari bilan bog‘langan (4-jadval). Bunda har bir qatlam molekularining siklopentan halqalarining ikkita gidroksil guruhi molekulararo O5-H5A...O6 va O5-H5A...O4 vodorod bog‘lari bilan o‘zaro ta’sirlashib, uch o‘lchamli fazoviy

struktura hosil qiladi. Bundan tashqari, molekulada ichidagi O5-H5A...O6 H-bog‘i mavjud.



1-Rrasm. Latifoninning fazoviy tuzilishi

4-jadval

Latifonin kristalidagi H-bog‘lar (D-donor, A-akseptor)

Atomlar	D...H (Å)	H...A (Å)	D...A (Å)	D-H<A (°)	Simmetriya
O5-H5A...O6	0.82	2.33	2.733(4)	111	x, y, z
O4-H4A...O6	0.82	1.94	2.758(5)	171	$1/2+x, 1/2+y, z$
O5-H5A...O4	0.82	2.11	2.898(4)	162	$1/2-x, -1/2+y, 1-z$
O6-H6A...O5	0.82	1.95	2.764(4)	171	$1/2-x, -1/2+y, 1-z$
C4-H4...O1	0.98	2.36	3.160(6)	139	$1/2+x, 1/2+y, z$

Scutellaria oxystegi o‘simligidan ajratib olingan moddalar

Scutellaria oxystegi o‘simligini xona haroratida 70%li etil spirti bilan 5 marta ekstraksiya qilindi va olingan spirtli ekstrakt rotorli bug‘latkich yordamida quyultirildi. Quyultirilgan ekstraktga 1:1 nisbatda suv qo‘shib suyultirildi. Suyultirilgan ekstraktga teng miqdorda benzin qo‘shib aralashtirildi va aralashma ajratish voronkasi bilan benzinni va suvli ekstraktlarga ajratildi. Suvli ekstrakt rotorli bug‘latkichda quyultirildi va silikagel qo‘shib aralashtirildi hamda xromatografiya ustuniga joylandi. Xromatografiya ustuni etilatsetat, etilatsetat+etanol 9:1 erituvchilar sistemasi bilan yuvib fraksiyalarga bo‘lindi. Etilatsetatli fraksiyadan latifonin (**5**), xrizin (**8**), β -sitosterol (**6**), daukosterol (**3**); etilatsetat+etanol 9:1 fraksiyadan sinorazid (**7**), lyuteolin (**9**) moddalari ajratib olindi.

Xrizin (8), $C_{15}H_{10}O_4$, och yashil-sariq kukun. Suyuq.haror. 284-286°C. UB-spektri (EtOH, λ_{max} , nm): 211, 268, 312. 1H va ^{13}C YaMR spektr ma’lumotlari 5-jadvalda keltirilgan.

β -sitosterol (6), $C_{29}H_{50}O$, oq rangli kristallar. Suyuq.haror. 135-138°C. 1H , ^{13}C YaMR, HSQC, HMBC spektrlarini o‘rganish va standart namuna bilan taqqoslash asosida ushbu birikma β -sitosterin ekanligi aniqlandi.

sinorazid (7), $C_{21}H_{20}O_{11}$, sariq rangli kristallar. Suyuq.haror. 256–259°C. UB spektri (λ_{max} , nm): 256, 268, 350; **IQ (KBr, ν_{max} cm^{-1})**: 3480 – 3260 (OH), 1665 (C=O), 1560, 1510 (C=C arom.), 1095, 1030 (C – O glykoziddagi); 1H va ^{13}C YaMR spektr ma’lumotlari 5-jadvalda keltirilgan.



Iyuteolin (9), C₁₅H₁₀O₆, och sariq rangli kukun. Suyuq.haror. 227-229°C. UB-spektr (λ_{\max} , EtOH, nm): 257, 265 yel., 356nm; +AlCl₃ 278, 330, 355, 400. **IQ (KBr, ν_{\max} sm⁻¹):** 3435 (OH), 2939, 2898 (-CH₃), 1650 (C=O), 1620,1578,1515,1453 (Ar), 1148, 1108, 1026, (C-O), 1010, 980, 930, 869, 837, 823, 802, 770, 740, 689, 670, 658, 637, 617, 578, 498, 403. ¹H va ¹³C YaMR spektr ma'lumotlari 5- jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Scutellaria oxystegia o'simligi flavonoidlarining ¹H va ¹³C YaMR spektroskopiya ma'lumotlari

№	2-modda		5-modda		6 modda	
	δ_H	δ_C	δ_H	δ_C	δ_H	δ_C
1	---	---	---	---	---	
2	---	164.26	---	165.75	---	166.34
3	7.00 (s)	106.63	6.96 (s)	104.57	6.53 (s)	103.85
4	---	183.21	---	183.29	---	183.86
5	---	163.63	---	163.03	---	163.20
6	6.77(d,J=2.1)	100.68	6.86(d, J=2.1)	101.06	6.20(d,J=2.1)	100.13
7	---	166.71	---	164.43	---	166.01
8	6.84(d,J=2.1)	95.45	7.01(d, J=2.1)	95.73	6.43(d,J=2.1)	94.99
9	---	159.05	---	158.33	---	159.40
10	---	105.64	---	107.03	---	105.30
1'	---	132.27	---	123.14	---	123.68
2'	7.93(m)	127.21	7.91(d,J=2.2)	115.15	7.36 (m)	114.15
3'	7.48 (m)	129.81	---	148.29	---	147.03
4'	7.48 (m)	132.43	---	152.40	---	150.98
5'	7.48 (m)	129.81	7.28(d, J=8.3)	117.32	6.89(d,J=8.9)	116.77
6'	7.93(m)	127.21	7.52(dd,J=8.3,2.2)	120.12	7.37 (m)	120.30
1''			5.85(d, J=7.7)	102.23		
2''				75.26		
3''				78.94		
4''				71.57		
5''				79.71		
6''				62.80		

d*-dublet, m**-multiplet, J***-spin-spin konstanta



β -sitosterol
 Xrizin: R₁=H, R₂=H, R₃=H;
 Sinorozid: R₁= β -D-Glc, R₂=OH, R₃=OH;
 Lyuteolin: R₁=H, R₂=OH, R₃=OH;

***Scutellaria oxystegia* o‘simligi yer ustki qismining biologik faolligi**

Scutellaria oxystegia o‘simligi efir moylari va yer ustki qismining biologik faolligini O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘simlik moddalari kimyosi institutining “Molekulyar genetika” laboratoriyasida professor Sh. Azimova va yetakchi ilmiy xodim S. Sasmakovlar bilan hamkorlikda o‘rganildi.

Scutellaria oxystegia o‘simligining yer ustki qismidan olingan ekstrakt va efir moylarining antimikrob faolligi o‘rganildi. Namunalarning antibakterial va zamburug‘ga qarshi faolligi modifikatsiyalangan agar-diffuziya usuli bilan 0,2 mg/disk sinovdan o‘tgan moddalar konsentratsiyasi yordamida hisoblandi. Ampitsillin, seftriakson va flukonazol ijobiy nazorat sifatida (Himedia Laboratories Pvt., Ltd.) ekstraksiya uchun foydalanilgan erituvchilar salbiy nazoratchi sifatida ishlatilgan. Sinov uchun *Bacillus subtilis* (RKMUZ-5), *Staphylococcus aureus* (ATCC 25923), *Pseudomonas aeruginosa* (ATCC 27879), *Escherichia coli* (RKMUZ-221) va *Candida albicans* (RKMUZ-247) zamburug‘ shtammlaridan foydalanildi. RKMUZ shtammlari O‘zR FA Mikrobiologiya instituti na‘munalaridan olingan.

In vitro skrining natijalari efir moyining *B. subtilis*, *S. aureus* va *E. coli* ga qarshi zaif ($6,04 \pm 0,10$ – $7,08 \pm 0,12$) antibakterial faolligini, ekstraksion benzin, xloroform (CHCl₃), n-butanol (n-BuOH), etil atsetat (EtOAc) va etanol (EtOH, 70%) ekstraktlari o‘rganilayotgan mikroorganizm shtammlariga nisbatan faol emasligi aniqlandi.

***Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o‘simliklarining element tahlili**

Phlomoides kaufmanniana va *Scutellaria oxystegia* o‘simliklaridagi makro- va mikroelementlar miqdori yuqori samarador energodispersion rentgen fluorescent (YSERF) spektrometrik qurilmasida (Yaponiya Rigaku NEX CG EDXRF Analyzer with Polarization in set – 9022 19 000 0) aniqlandi.

Phlomoides kaufmanniana o‘simligi kuli tarkibida 32 xil mikro- va makro-elementlardan tarkib topib, ularning 8 tasi *s*-elementlar, 7 tasi *p*-elementlar, 14 tasi *d*-elementlar va 3 tasi *f*-elementlar oilasiga mansub hisoblanadi (6-jadval).

6-jadval

***Phlomoides kaufmanniana* o‘simligining element tahlili natijalari**

№	Element nomi	Massa ulushi	№	Element nomi	Massa ulushi
1	Natriy (Na)	2,52	4	Fosfor (P)	22,9
2	Magniy (Mg)	4,87	5	Kaliy (K)	35,6

3	Kremniy (Si)	23,5	6	Kalsiy (Ca)	7,35
---	--------------	------	---	-------------	------

O‘simlik tarkibida massa ulushi yuqori bo‘lgan elementlar keltirilgan.

Scutellaria oxystegia o‘simligi ildizi kulining tarkibi 27 ta mikro- va makro elementlardan iborat bo‘lib, ularning 7 tasi s-elementlar, 9 tasi p-elementlar, 10 tasi d-elementlar, 1 tasi f-elementlar oilasiga mansubligi aniqlandi (7-jadval).

7-jadval

Scutellaria oxystegia o‘simligi kul miqdori tarkibi

№	Element nomi	Massa ulushi	№	Element nomi	Massa ulushi
1	Natriy (Na)	0,401	4	Kremniy (Si)	46,5
2	Magniy (Mg)	1,177	5	Kaliy (K)	0,773
3	Alyuminiy (Al)	1,82	6	Kalsiy (Ca)	3,21

O‘simlik tarkibida massa ulushi yuqori bo‘lgan elementlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “*Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o‘simliklari tarkibini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar” deb nomlangan uchinchi bobida *Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o‘simliklarining yer ustki qismidan efir moylarini ajratib olish va ekstraksiya qilish, ekstraktni fraksiyalarga bo‘lish, summalarni xromatografik usullar yordamida tekshirish, tadqiqotning spektral usullaridan foydalanib tahlil qilish, olingan natijalar asosida individual moddalar tuzilishini aniqlash, makro- va mikroelementlarni aniqlash jarayonlari to‘liq bayon etilgan.

XULOSALAR

1. *Phlomoides kaufmanniana* o‘simligi yer ustki qismi spirtli ekstraktlarini ballast moddalardan tozalashda va fraksiyalarga ajratishda erituvchilar sistemasini qo‘llashning noan‘anaviy samarali usuli taklif etildi.

2. Ilk bor *Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o‘simliklarining yer ustki qismi kimyoviy tarkibi o‘rganilib, 9 ta modda toza holda ajratib olindi. Ularning tuzilishi UB, IQ YaMR spektroskopiya hamda rentgen tuzilish tahlili usullari yordamida isbotlandi.

3. *Phlomoides kaufmanniana* o‘simligidan adabiyotlarda ma’lum bo‘lmagan yangi tuzilishdagi iridoid latifonin ajratib olinib, uning tuzilishi zamonaviy spektral usullarda metil (4R,5S,6S,7S,8R,9S)–6,7,8–trigidroksi–8–metil–1– oksooktagidrosiklopenta[c]-piran-4-karboksilat ekanligi isbotlandi.

Ilk bor *Phlomoides kaufmanniana* o‘simligining yer ustki qismi xloroformli fraksiyasidan β -stigmasterol va diizooktil ftalat, etilatsetatli faraksiyasidan daukosterol, flamiol, latifonin moddalari sof holda ajratib olinib, tuzilishi zamonaviy spektral usullarda aniqlandi.

Scutellaria oxystegia o‘simligi yer ustki qismining etilatsetatli fraksiyasidan ilk bor latifonin, xrizin, β -sitosterol, daukosterin, lyuteolin va sinorozid moddalari toza holda ajratib olindi va ularning tuzilishi spektral usullarda isbotlandi.

4. *Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o‘simliklarining efir moylari GX-MS usulida tahlil qilinib, o‘simliklar tarkibida mos ravishda 47 va 43 ta birikma identifikatsiya qilindi. *Phlomoides kaufmanniana* o‘simligi efir moyi tarkibida kislrorodli monoterpenlar, aromatik aldegidlar, uglevodorodlar va spirtlar, *Scutellaria oxystegia* o‘simligi efir moyi tarkibida aldegid va ketonlar, uglevodorodlar, oksidlangan seskviterpenlar spirtlar hamda karbon kislotalar asosiy komponentlar sifatida uchrashi ko‘rsatib berildi.

5. *Phlomoides kaufmanniana* va *Scutellaria oxystegia* o‘simlik xomashyolari makro- va mikroelementlarga boy bo‘lib, o‘simliklarda mos ravishda 32 va 27 ta elementlar borligi aniqlandi. O‘simliklar tarkibida zaharli elementlarning kamligi (Pb, As, Sn, Sr va b.), eng muhim bo‘lgan biologik faol elementlarning miqdori (Mg, Ca, Cu, Mn, Zn, Si, va P) ruxsat etilgan konsentratsiyalarda mavjudligi aniqlandi.

6. Farmakologik tadqiqotlar natijasida *Scutellaria oxystegia* o‘simligi yer ustki qismidan ajratib olingan ekstrakt hamda efir moylari zamburug‘ va mikroblarga qarshi yuqori biologik faolliklar namoyon qilishi aniqlandi. *Scutellaria oxystegia* o‘simligi yer ustki qismi spirtli ekstrakti mikroblarga va bakteriyalarga qarshi samarali vosita sifatida tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.К.05.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИНСТИТУТ ХИМИИ РАСТИТЕЛЬНЫХ ВЕЩЕСТВ**

МУРАДОВ МУРОДЖОН ТОХИРЖОНОВИЧ

**ИЗУЧЕНИЕ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА ВИДОВ РАСТЕНИЙ
PHLOMOIDES KAUFMANNIANA И *SCUTELLARIA OXYSTEGIA*,
ПРОИЗРАСТАЮЩИХ В УЗБЕКИСТАНЕ**

02.00.10 – Биоорганическая химия

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Фергана- 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирован Высшей аттестационной комиссией при министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.1.PhD/K675.

Докторская диссертация работа выполнена в Наманганском государственном университете и Институте химии растительных веществ АН РУЗ.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме) размещен на сайте Научного совета (www.fdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Каримов Абдурашид Мусахонович
доктор химических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Гафуров Махмуджон Бакиевич
доктор химических наук, профессор

Нишонов Миркозимжон
кандидант технических наук, профессор

Ведущая организация:

Андижанский государственный университет

Защита диссертации состоится “___” _____ 2024 г. в ___ часов на заседании Научного совета № PhD.03/30.12.2019.K.05.01 по присуждению ученых степеней при Ферганском государственном университете (адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, дом 19. Тел.: (99873) 244-44-02; факс: (99873) 244-44-91).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована за № _____) (по адресу: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, дом 19. Тел. (99873) 244-44-02, факс (99873) 244-44-93; e-mail: fariduinfo@umail.uz)

Автореферат диссертации разослан “___” _____ 2024 г.
(реестр протокола рассылки № _____ от “___” _____ 2024 г).

В.У. Хужаев

Председатель научного совета по
присуждению учёной степени,
д.х.н., профессор

Ш.Ш. Тургунбаев

Учёный секретарь Научного совета по
присуждению учёной степени, доктор
философии по химическим наукам (PhD)

Ш.В. Абдуллаев

Председатель Научного семинара
при научном совете по присуждению
учёной степени, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Большая часть лекарственных средств, используемых населением мира, готовится на основе лекарственного растительного сырья. Поэтому спрос на лекарственные растения в последние годы увеличивается. Лекарственные средства, приготовленные на основе растений, содержащие биологически активные соединения, оказывают широкий спектр положительного воздействия на организм человека. Наряду эффективным комплексным действием эти природные соединения обладают также низкими побочными эффектами, которые привлекают особое внимание и превосходят искусственных и синтетических лекарственных средств.

В современном мире проводится множество научных исследований по изучению состава лекарственных растений, выделению их биологически активных веществ, изучению структуры и биологической активности выделенных веществ, а также по созданию эффективных лекарственных средств из полученных соединений. В связи с этим особое внимание уделяется выделению фармакологически активных веществ, исследованию химического состава растений семейства яснотковых *Phlomoides* и видов *Scutellaria*, и созданию препаратов с новым эффектом на основе выделенных соединений.

Интенсивное развитие фармацевтической промышленности нашей страны, основанной на сырье лекарственных растений позволяет добиться определенных результатов в обеспечении населения дешевыми натуральными, и качественными лекарственными средствами. В стратегии развития нового Узбекистана в пункте № 22 поставлены задачи, которые являются важными для выполнения “Увеличение объема производства продукции фармацевтической промышленности в три раза и доведения обеспечения внутреннего рынка отечественными лекарственными средствами до 80 процентов”¹. В связи с этим важное научно-прикладное значение имеют исследования растений *Phlomoides kaufmanniana* и *Scutellaria oxystegia*, совершенствование методов извлечения биологически активных соединений и создание на их основе противовоспалительных, противомикробных, седативных и гипотензивных препаратов, содержащих флавоноиды, иридоиды и терпеноиды.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных Постановлением Президента Республики Узбекистан № ПП-5229 от 7 ноября 2017 года «О мерах по кардинальному совершенствованию системы управления фармацевтической отраслью», ПП-3532 от 14 февраля 2018 года «О дополнительных мерах по ускоренному развитию фармацевтической отрасли», Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5707 от 10.04.2019 года «О дальнейших мерах

¹ Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.января 2022 года. № УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы»

по ускоренному развитию фармацевтической отрасли Республики в 2019 — 2021 годах», в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 10 апреля 2020 года № ПП-4670 «О мерах по охране, культурному выращиванию, переработке дикорастущих лекарственных растений и рациональному использованию имеющихся ресурсов», а также способствуют целям, изложенным в других нормативно-правовых документах, принятых в этой области.

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики VI. «Медицина и фармакология».

